



**FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMINING
QARORI**

№ 90

«15» 02 2021-yil

Beshariq tumani Fayzli Adirobod mevalari massivi hududida joylashgan “Muxtorjonov Begzodbek fayzi” nomli bog`dorchilik yo`nalishidagi fermer xo`jaligiga qarashli yer maydonini bir qismini tuman hokimligi zaxirasiga qaytarish to`g`risida

Tumanda faoliyat ko`rsatayotgan “Muxtorjonov Begzodbek fayzi” nomli bog`dorchilik yo`nalishidagi fermer xo`jaligi rahbari X.Isroilovning tuman hokimi nomiga 08.02.2021-yilda yozgan yer maydonini bir qismini tuman hokimligi zaxirasiga qaytarish haqidagi arizasini va to`plangan hujjatlarini ko`rib chiqib O`zbekiston Respublikasi “Fermer xo`jaligi to`g`risida”gi Qonunning 32-moddasi, O`zbekiston Respublikasi “Yer Kodeksi”ning 6,36-moddalari, O`zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunning 6,25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Tumandagi “Muxtorjonov Begzodbek fayzi” nomli bog`dorchilik yo`nalishidagi fermer xo`jaligi rahbari X.Isroilovning yer maydonini bir qismini tuman hokimligi zaxirasiga qaytarish haqidagi 08.02.2021-yildagi arizasi qanoatlantirilsin.

2. Tuman hokimligi huzuridagi tender asosida fermer xo`jaliklarini tashkil etish va ularga yer maydonini uzoq muddatli ijarada foydalanishga ajratib berish hamda fermer xo`jaliklari yer maydonlarini qaytarib olish va faoliyatini tugatish bo`yicha doimiy komissiyaning 09.02.2021-yildagi dalolatnomasi tasdiqlansin.

3. “Muxtorjonov Begzodbek fayzi” nomli bog`dorchilik yo`nalishidagi fermer xo`jaligi foydalanishidagi Fayzli Adirobod mevalari massivi hududi qishloq xo`jaligi yer xaritasining 17q-konturdagi jami; 8.7 ga shundan, 8.7 ga bog` maydonini tuman hokimligi zaxirasiga qaytarib olinsin.

4. “Muxtorjonov Begzodbek fayzi” nomli bog`dorchilik yo`nalishidagi fermer xo`jaligi yer maydonining bir qismi tuman hokimligi zaxirasiga qaytarilayotganligi munosabati bilan ushbu fermer xo`jaligining yer maydoni Fayzli Adirobod mevalari massivi hududi qishloq xo`jaligi yer xaritasining 17q, 19q, 15q, 105-konturlardagi jami, 18.1 ga shundan: 17.1 ga bog` maydoni, 0.9 ga suv osti yerlari, 0,1 ga yo`llar etib belgilansin hamda yer ijara shartnomasiga o`zgartirish kiritilsin.

5.Kadastr agentligining Beshariq tumani bo'limi (M.Madaminov), tuman Statistika bo'limi (O.Komilov), Davlat Soliq inspeksiyasi (T.Xusanov) larga,
- ushbu qarordan kelib chiqqan holda tegishli hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

6. Ushbu qarorni tasdig'i Xalq Deputatlari tuman Kengashidan so'ralsin.

7.Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Artiqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



R.Jo'rayev